

XALQ TABOBATIDA DORIVOR O'SIMLILARDAN TAYYORLANGAN DAMLAMA, CHOY, DEKOKTLAR, NASTOYKALAR INSON SALOMATLIGI UCHUN FOYDALI XUSUSIYATLARI.

Agzamova Difuza Akbarovna

Jizzax viloyati G'allaorol tumani 51- maktab o'qituvchisi

Annotatsiya: *Dorivor o'simliklardan tayyorlangan damlama, choy, nastoyka, dekoktlarning inson salomatlidagi ahamiyati va ularni tayyorlash haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Damlama, choy, nastoyka, dekokt, milklar qonashi, bosh, tish, quloq, ko'z og'riqlari, moychechak, zubturum, bo'znoch, limon, yalpiz, bo'znoch.*

Choyning barcha dardga davo bo'luvchi ne'mat ekanligini insonlar qadim zamonlardan oq bilishgan. Xitoy, Yaponiya, Hindiston va Hindi-Xitoy mamlakatlarining xalq tabobatida ko'pgina hastaliklar choy bilan davolanib kelinadi. Uni shifo maqsadida qo'llash o'zbek, tojik va O'rta Osiyodagi boshqa xalqlar tabobatiga ham xosdir. Xalq tabobatiga kasalliklarning oldini olish, sog'liqni saqlash, kasalliklarni davolashni kundalik uslubi hisoblanadi. Yangi uzilgan yoki quritilgan rezavor mevalar, shifobaxsh o'tlar bilan ichiladigan choy va damlamalarning fizilogik ahamiyati katta.

Damlama yoki choy tayyorlash uchun damlanadigan chinni piyolaga quruq o'tlar solinadi, 500 ml qaynatilgan suvga 1 osh qoshiq miqdorida yoki 1 choy qoshiq 1 stakan (250ml) qaynatilgan suvga solinadi. Choyni 7-10 daqiqa davomida damlab qo'yish kerak bo'ladi, keyin suzgidan o'tkaziladi va ichiladi. Kosmetik preparatlarni tayyorlash uchun o'tlardan tayyorlangan damlama uzoq vaqt yoki to'liq sovigunga qadar turishi kerak. Agar siz yangi o't damlagan bo'lsangiz, unda taklif qilingan miqdorni ikki marta oshirish talab qilinadi.

Dekokt—bu o'simlikning qattiq qismidan qilingan qaynatma. Masalan, ildizpoya, po'stloq, mevalar, urug'lar shular jumlasidandir. Dekoktni tayyorlash uchun na'matakning quruq mevalar na'muna olinadi va chinni idishga solib uning ustiga suv quyiladi va qaynaguncha qaynatiladi. 5 daqiqa davomida qaynatiladi. Suvning qo'shimcha bug'lanishini hisobga olgan holda suyuqlikni biroz ko'proq solish kerak bo'ladi. Dekokt singari damlamalar xuddi shunday tartibda tayyorlanadi. Faqat ko'proq soat damlab qo'yiladi, ichishdan oldin suzgidan o'tkaziladi.

Nastoyka 40-70 %li etil spirt asosida tayyorlanadi. Ushbu shifobaxsh vosita o'zida gul va o'tlarning faol komponentlarini saqlaydi. Nastoyka, choy va dekoktlarga nisbatan yuqori konsentrsiyaga ega bo'ladi va kuchli samara beradi. Nastoyka tayyorlash uchun maydalangan xom-ashyo shisha idish ichiga solinadi va ustiga etil spirt solinib, so'ngra mahkam yopib turadigan qopqoq bilan berkitiladi hamda yeti kun davomida qorong'u joyda saqlanadi. Tayyor bo'lgan dorilar suyuqlik marli yordamida sizdirib olinadi hamda o'simlik qoldiqlaridan tozalangach, usti qoraytirilgan shisha idishda saqlanadi. Bunday usulda tayyorlangan nastoykalar bir necha yil saqlanishi mumkin.

Moychechak gullaridan tayyorlangan dorivor vositalar (qaynatma, damlama, malham, sharbat, nastoyka yog') miya, bosh, tish, quloq, ko'z og'riqlarini, oshqozon-ichak, asab, o'pka,

jigar, buyrak, shamollash va boshqa kasalliklarni davolashda azaldan xalq tabobatida keng qo'llanilib kelingan.

□ Jumladan, qaynatma uchun moychechakning quritilgan gulidan 10 gramm olib, 200 gramm qaynoq suvda 5-7 daqiqa qaynatiladi. So'ngra tindirib, suzib olinadi.

□ Damlama uchun esa 1 osh qoshiq quritilgan moychechak guli 1 stakan qaynoq suvda salkam bir soat damlab qo'yiladi. So'ngra dokadan suziladi. Damlamaning 1/3 qismi kuniga 3 mahaldan ovqatdan oldin iliq holda ichiladi. Davolanish kursi 25-30 kun.

□ Shuningdek, sovuq suvda ham damlama tayyorlash mumkin. Buning uchun 10 choy qoshiq quritilgan moychechak guli sovuq suvda 8 soat damlab qo'yiladi.

Bargizub(zubturum) damlamasi to'g'ridan-to'g'ri oshqozon shilliq qavatining kislotajralib chiquvchi qismiga ta'sir qiladi. Bargizub barglaridan tayyorlangan damlama va qaynatma bronxit, bronxial astma, ko'k yo'tal va silni davolashda qo'llaniladi.

Quritilgan bargizub bir osh qoshiq stakanga solinadi. Uning ustidan esa qaynoq suv soling. Keyin damlamaga 10 daqiqa dam bering. Tayyor bo'lgan malhamni suzgichdan suzib, bir soat ichida oz-ozdan iching.

Shuningdek, yangi olingan bargizubni yaxshilab yuving. Keyin maydalab to'g'rab, suvini siqib oling. Hosil bo'lgan massaga mos ravishda asal aralashtiring. Keyin biroz tindiriladi. Ushbu malhamni 2-3 osh qoshiqdan iste'mol qilinadi.

Bunday damlamalarni ichgandan keyin orqasidan issiqlik beruvchi asalni 1 choy qoshiq iste'mol qilishni unutmang. Chunki bu damlamalar sovuqlikni oshiruvchi hisoblanadi.

Qora smorodina mevalaridan tayyorlangan qaynatmalar kamqonlikda, gipertoniya xastaligi, milklarning qonashi, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasi, gastrit kabi kasalliklarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli toshmalar va teri kasalliklarida smorodina barglari qaynatilib vanna qilinadi. Smorodina barglaridan tayyorlangan damlamalar organizmni siydik va purin kislotasidan xalos qiladi. Shuningdek, undan terlatuvchi, yengil ichni suruvchi vosita sifatida foydalaniladi va qon ketishlarida hamda moddalar almashinuvi buzilganda qo'llaniladi. Qora smorodina suvi yo'talda asal yoki qand qo'shib iste'mol qilinadi.

Anjabor(Yerqunoq) o'tidan tayyorlangan damlama va suyuq ekstrakt ilmiy tabobatda burishtiruvchi va qon oqimini to'xtatuvchi sifatida foydalaniladi. Ulardan turli gastrirlar, me'da va o'n ikki barmoq ichak yara kasalliklariga davo qilish uchun foydalaniladi.

Tayyorlash va ishlatish usuli:

1. Anjabor o'tining mayda to'g'ralgan ildizpoyalaridan bir oshqoshiq miqdorda olib, ustiga 1 litr suv quyiladi va 20 minut qaynatiladi, sovuquncha damlab qo'yiladi, suzib olinadi. Siydik-tosh va o't-tosh kasalliklarida yarim stakandan kuniga 3-4 mahal ichiladi.

2. Anjaborning mayda qirqilgan ildizpoyasidan 15 gramm miqdorda olinib, ustiga yarim litr suv quyiladi, bir soat qaynatiladi. Keyin suzib olinib yaralar va ko'pdan buyon bitmayotgan jarohatlarga davo bo'ladi.

Dorivor tirnoqguldan damlama tayyorlash: 2 choy qoshiq tirnoqgul ustidan 200 ml qaynagan (issiq holida) suv solinadi va usti yopiq holida 30 daqiqa qo'yiladi. So'ng dokadan suzib olib, kuniga 3-4 mahal iliq holida ovqatdan oldin 100 gramm (7choy qoshiq) dan ichiladi.

Jiyda. Ich ketishi noqulayliklarga sabab bo'lishi mumkin. Buning oldini olish uchun jiydadan tayyorlangan damlama foyda beradi. Buning uchun og'zi yopiladigan idishga 1.5 litr suv quyib, ustiga 50 gramm jiyda solinadi va 10-15 daqiqa qaynatiladi. So'ngra qaynatma

dokadan suzib olinadi. Har kuni 3 mahal ovqatlanib bo'lgach, 2 osh qoshiqdan ichib turiladi. Muolaja tuzalgunga qadar davom ettiriladi.

Limon. Qandli diabetning yengil turida, limon po'stlog'idan tayyorlangan damlamadan foydalanishingiz mumkin. Buning uchun 2 osh qoshiq maydalangan limon po'stlog'I ustiga 2 stakan suv solinadi va og'zi yopiq holda past olovda 30 daqiqa davomida qaynatiladi. Ushbu damlama tindirilgach yarim stakan miqdorda kuniga 3 mahal, ovqatlanishdan yarim soat ichib turiladi. Muolaja davomiyligi 1 hafta.

Bo'znoch gulining damlamasi yoki qaynatmasi xalq tabobatida jigar, buyrak kasalliklarda, siydik va o't yo'llarida tosh yig'lganda hamda siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Ba'zan ushbu damlama yumshoq surgi sifatida ham ishlatiladi.

Damlama tayyorlash: 1 osh qoshiq bo'znoch gullari ustiga 2 stakan qaynoq suv solib yarim soatga damlab qo'yiladi. Damlama iliq holda kuniga yarim stakandan 3 marta ovqatdan oldin 10-15 kun davomida ichiladi.

1 hissa o'simlik bargi yoki guliga 500 ml qaynoq suv quyib damlanadi. Kuniga 3 mahal 3 osh qoshiqdan qabziyat va buyrak yetishmovchiligida qabul qilinadi.

Arpabodiyon mevasidan tayyorlangan damlama me'da-ichak kasalliklarini davolashda hamda ishtaha ochuvchi, balg'am ko'chiruvchi (bronxit, traxeit, laringit, ko'kyo'tal, nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklarida), o't va siydik haydovchi, terlatuvchi hamda yengil surgi sifatida xalq tabobatida qadimdan ishlatib kelinadi.

Na'matak. Xalq tabobatida meva qaynatmasi yoki damlamasi bachodandan qon ketishini to'xtatuvchi, isitma qoldiruvchi dori sifatida hamda me'da-ichak (ich ketganda, qon aralash ich ketgan kasalliklarni), og'iz bo'shlig'I kasalliklarida (milk yaralanganda va undan qon oqqanda) og'iz chayish uchun ishlatiladi.

Chilonjiyda mevasidan tayyorlangan damlama ko'krak og'rig'i, yo'tal, chechak, kamqonlik va ich ketish kasalliklarida og'riq qoldiruvchi va qon to'xtatuvchi dori sifatida ishlatiladi. Chilonjiyda mevasidan damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishda qaynab turgan 1 stakan suvga 20 gramm maydalangan mevasidan solib, 1 soatga damlab qo'yiladi. So'ngra dokadan suzib olinadi. Damlamani kuniga 3 mahal ovqatdan yarim soat oldin 2 osh qoshiqdan ichish tavsiya etiladi.

Chirqanotning barg damlamasi ichilsa, bod xastaligiga taskin beradi. O'simlik gullaridan tayyorlangan qaynatma beozor surgi vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Isiriq. Xalq tabobatida isiriqning yer usti qismidan tayyorlangan damlama ayniqsa, bezgak, tutqanoq, tomoq og'rig'I, xoldan toyish va surunkali charchash natijasida kelib chiqadigan asab buzilishlari va uyqusizlikka qarshi kurashishda foydalaniladi. Bundan tashqari isiriq va zig'ir urug'laridan tayyorlangan qaynatma bronxial astmada naf keltiruvchi omil hisoblansa, qalampir mevasi bilan tayyorlangan qaynatmasi zaxm, bod va boshqa kasalliklarni bartaraf etadi.

Evkalipt bargining damlamasi me'da-ichak kasalliklari va ginekologik kasalliklarni hamda yiringli yaralarni davolashda qo'llaniladi. Nastoykasi isitmaga qarshi va bronxit, gripp kasalliklari hamda yo'tal tutganda ishlatiladi.

Qoncho'pning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama jigar va o't pufagi kasalligida ishlatiladi.

Jag'-jag'(achambiti). O'simlik damlamasi ichdan qon oqishini to'xtatadi, buyrak va

siydik yo'llari, jigar kasalliklarida, bachodan raki va ich ketganda ichish tavsiya etiladi.

Damlama tayyorlash uchun qopqoli idishga qaynatib sovutilgan 1 stakan suv quyib, ustiga jag'-jag'ning maydalangan yer ustki qismidan 3 choy qoshiqda solinadi va 8 soat davomida sovuq suvda damlab qo'yiladi. So'ngra dokada suzib, tayyor bo'lgan damlamadan yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarni davolashda kuniga 3-4 maxal 1 osh qoshiqdan ichiladi.

Oddiy petrushka. Xalq tabobatida meva va ildiz damlamalari ovqat hazm qildiruvchi, ishtaha ochuvchi, ter haydovchi, buyrak, qovuqda tosh bo'lganda, peshob yo'llari xastaliklarini davolovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Tut mevasini quritib, undan damlama, kompot tayyorlab ichilsa, darmonsizlikni davolaydi, ozishga yordam beradi, organizmni tozalaydi. Qishda tut daraxtining kurtagini olib, tozalab, damlamasini yurakni quvvatlash uchun ichib yuriladi. Og'iz bo'shlig'I

xastaliklarida stomatitda, parodontozda, yara va tomoq kasalliklarida shotut mevasi damlamasi bilan g'arg'ara qilish yaxshi natija beradi. Bunday damlamani tayyorlash uchun 2 qoshiq ezib maydalangan shotut mevasi ustidan 200 gramm qaynoq suv quyish yo'li bilan tayyorlanadi.

Behi. Ibn Sino bexi mevasidan tayyorlangan damlama va qaynatmani dizenteriya va ich ketishi, ishtaha ochuvchi, burishtiruvchi, peshob haydovchi dori sifatida qo'llagan.

Yalpiz qon bosimini tushirish xususiyatiga ega. Bir qismi yalpiz, bir qismi moychechak, yarim qismi valerianadan damlama tayyorlab, uni har kuni bir stakanning uchdan bir qismi miqdorida iste'mol qilish lozim. Yalpizdan tayyorlangan damlama ovqat hazm qilish tizimi ish faoliyatida ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ichaklarda havo yig'ilishi va ich qotishining oldini oladi. Ko'ngil aynishi va qayt qilishda ham yalpizdan tayyorlangan damlama ancha samara beradi. Yalpizli damlama oshqozon osti bezi ish faoliyatida ham yaxshi ta'sir ko'rstadi, shu bois uni qandli diabet bilan og'rigan kishilarga tavsiya etiladi.

Limono't damlamasi tinchlantiruvchi va qon bosimini pasaytirish uchun qo'llaniladi.

Turkiston adonisi(sariqgul). O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida isitma, badan uvishishi, nafas olishning qiyinlashishi va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Ajg'on mevasining vinoda tayyorlangan damlamasini Abu Ali ibn Sino ko'krakda yig'ilgan yiringni chiqarib yuborish, surunkali isitmada haroratni pasaytirish, ilon va chayon chaqqanini davolash hamda buyrak-tosh va boshqa kasalliklarda siydik haydovchi vosita sifatida qo'llagan.

Anor.Xalq tabobatida anor po'stlog'I bilan meva po'stining qaynatmasi, gulining damlamasi, mevasi va uning shirasini ich ketishi, dizenteriya, sariq kasalliklarini davolashda hamda qon oqishini to'xtatishda, siydik va gijja haydayda, og'riq qoldirishda ishlatiladi.

Turkiston arslonquyruq. O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida tinchlantiruvchi vosita sifatida yurak, me'da va asab kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi.

Bangidevona bargining damlama va qaynatmasi asab kasalligida tinchlantiruvchi, nafas qisishi hamda revmatizmida, tish, ko'krak va bel og'riganda og'riq qoldiruvchi, uxlatuvchi, tinchlantiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Buning uchun issiq holdagi damlamasi xidlanadi.

Binafsha damlamasi nafas yo'llari kasalligida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Damlama tayyorlash uchun uch rangli binafshaning yer ustki qismidan 40 gramm olib 2

stakan qaynab turgan suvga solinadi va 2 soat damlab qo'yiladi.

Bozulbandan tayyorlangan damlama yoki qaynatma xalq tabobatida turli qon oqishlarni to'xtatish uchun ishlatiladi.

Brusnika bargining damlamasi va qaynatmasi buyrakka tosh kelganda, siydik yo'llari va qovuq kasalliklarida dezinfeksiya qiluvchi, siydik haydovchi vosita sifatida hamda bod va podagra kasalliklarida qo'llaniladi.

Gazanda o'simligi bargidan tayyorlangan damlama, qaynatma va barg kukuni xalq tabobatida ko'krak og'rig'I, nafas qisishi, diabet, isitma va bod kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi. Bulardan tashqari, bargidan tayyorlangan damlama va poroshogi nafas yo'llari kasalligida balg'am ko'chiruvchi, siydik haydovchi (siydik yo'llari va buyrak-tosh kasalliklarida) hamda ichakdan qon oqishini to'xtatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Soch to'kilishini to'xtatish uchun gazanda bargi damlamasi bilan bosh yuviladi.

Samincho'p yer ustki qismi damlamasi xalq tabobatida siydik yo'llari va buyrak yallig'lanishini, o'pka, me'da kasalliklarni davolash uchun qo'llaniladi. Yer ustki qismi damlamasi ilmiy tabobatda siydik haydovchi va spazmolitik vosita sifatida buyrak va siydik yo'llari yallig'lanishini davolashda hamda buyrak, qovuq va siydik yo'llaridan tosh va qumlarni haydash uchun ishlatiladi.

Gulxayri. Ibn Sino gulxayrining ildizi, bargi va urug'idan tayyorlangan damlama bilan zotiljam, qon tupurish, yo'tal, buyrak kasalliklarini davolagan hamda balg'am ko'chiruvchi va shishlarni qaytaruvchi vosita sifatida qo'llagan. O'rta Osiyo xalqlari gulxayri turlari ildizidan tayyorlangan damlamani ko'krak og'riganda, nafas qisishi, o'pka shamollashi, yo'tal, ko'kyo'tal va nafas yo'llarining boshqa kasalliklarida ko'krakni yumshatuvchi, og'riq qoldiruvchi va balg'am ko'chiruvchi dori sifatida ishlatiladilar. Ildizining damlamasi yana me'da va o'n ikki barmoqli ichak yarasi kasalligida, dezenteriyada, bolalarning ichi ketganda, buyrak va boshqa kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Tomoq yallig'langanda, tomoq og'riganda ushbu damlama bilan tomoq chayiladi.

Qirqbo'g'imning yer ustki qismidan tayyorlangan damlamasi xalq tabobatida o'pka sili, buyrak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Undan buyrak va siydik yo'llaridagi toshlarni tushirishda siydik haydashda, turli qon oqishlarda (qon tupurganda, qon aralash ich ketganda, burun, milk va yaralardan qon oqqonda) foydalaniladi. Damlamasi bilan yana yaralar, chipqon va ba'zi teri kasalliklari davolanadi.

Damlama tayyorlash uchun qopqoqli idishga dala qirqbo'g'imining maydalangan yer ustki qismidan 4 choy qoshiqda solib, ustiga 2 stakan qaynab turgan suv quyiladi va damlab qo'yiladi. So'ngra dokada suzib, kun bo'yi oz ozdan issiq holda ichiladi.

Dastarbosh gullarining damlamasi va poroshogi gijjalarni (askarida va ostrisalarni) tushirishda va jigar kasalliklarida o't haydovchi vosita sifatida hamda ba'zi ichak kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Gullaridan tayyorlangan damlama gijjalarni tushirish, isitma, ba'zi me'da-ichak va boshqa kasalliklarni davolash uchun, yel va o't haydovchi vosita sifatida hamda yaralarni davolashda qo'llaniladi.

Damlama tayyorlash usuli: Qurigan dastarbosh guli va bargi aralashmasidan 4 osh qoshiq olib 1 stakan qaynoq suvga solinadi va yarim—bir soat damlab quyiladi. Sovigach dokadan o'tkazib mayda gijjalarni tushirish uchun kuniga 3 maxal 1 osh qoshiqdan ichiladi.

Qashqarbeda damlamasi xalq tabobatida o'pka va yuqori nafas yo'llari kasalliklarida,

ko'krak og'riganda, balg'am ko'chiruvchi, yumshatuvchi va og'riq qoldiruvchi vosita sifatida, bosh og'rig'I va gipertoniya kasalliklarini davolash uchun qo'llaniladi. Ba'zan uni yel haydovchi dori sifatida ham tavsiya qilishadi. Yaralarni qashqarbada damlamasi bilan yuvilsa, yaxshigina naf beradi.

!!!Biroq dorivor qashqarbada preparatlari ko'p miqdorda va uzoq muddat qabul qilinsa, bosh aylanishi, qayt qilish va uyqusizlik kuzatilishi mumkin.

Damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga 2stakan qaynatib sovutilgan suv quyiladi, ustiga maydalangan yer ustki 2 choy qoshiqda solib, damlab quyiladi. Keyin dokada suziladi va damlamadan kuni 2-3 maxal chorak stakandan ichiladi.

Yerchoy ildizpoya va ildizidan tayyorlangan qaynatma (yoki damlama) ko'krak og'rig'ini, ich ketishini davolashda, og'iz va tomoq og'riganda tomoqni chayish uchun qo'llaniladi. Og'iz va tomoqni chayqash uchun yer ustki qismidan tayyorlangan damlama ishlatiladi.

Damlama tayyorlash usuli.

Yer ustki (va yer ostki) qismidan damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga 1 stakan qaynab turgan suv quyib ustiga maydalangan yer ustki qismidan (yoki ildizpoyasi bilan ildizidan) 2 choy qoshiq solinadi va 2 soat davomida damlab qo'yiladi, so'ng dokada suziladi.

Yong'oq bargidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida me'da-ichak yallig'lanishi, ich ketishi, diabet va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Shu damlama bilan teri sili va boshqa teri kasalliklari, bolalarning raxit va shirincha kasalliklari hamda turli yaralar davolanadi, angina va gingivitda og'iz chayiladi.

Damlama tayyorlash usuli. Yong'oqdan damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga 1 stakan qaynab turgan suv quyiladi, ustiga quritib maydalangan bargdan 1 osh qoshiqda solib, 2 soat damlab qo'yiladi. So'ng dokada suzib bolalarning raxit va shirincha kasalliklarini davolash uchun kuniga uch maxal 1 choy qoshiqdan ichiriladi. Stomatit, gingivit va boshqa og'iz hamda tomoq yallig'lanishi kasalliklarida shu damlama bilan og'iz va tomoq chayilsa ancha samara beradi.

Juka guli va uning damlamasi terlatuvchi yig'malar—choylar tarkibiga kiradi. U shamollash kasalliklarida terlatuvchi dori sifatida hamda tomoq og'riganda og'iz va tomoqni chayish uchun ishlatiladi. Juka turlarining gulidan tayyorlangan damlama xalq tabobatida shamollash kasalliklarida terlatuvchi, turli qon oqishlard qon oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Damlamasi yana yo'talni, turli asab kasalliklarini va bosh og'rig'ini davolashda ishlatiladi. Issiq damlama bilan tomoq og'riganda tomoq chayiladi.

Damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga 2 stakan qaynab turgan suv quyiladi, ustiga maydalangan juka gulidan 2 choy qoshiqda solinadi va yarim soat davomida damlab qo'yiladi. So'ngra dokada suzib, yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarni davolash uchun har kuni 2-3 maxal ovqatdan oldin yarim stakandan isitib ichiladi.

Zirk(qoraqand) ildizi damlamasi xalq orasida yurak-tomir va me'da kasalliklarini, nevrasteniyani, bos va isitmani davolashda qo'llaniladi. Bargi va shoxlari qaynatmasi bilan bosh og'rig'I, burundan qon oqishi davolanadi. Meva damlamasidan yurak ishini yaxshilovchi, isitmani va qon bosimini pasaytiruvchi, chanqoq qoldiruvchi vosita sifatida hamda nevrasteniya va ich ketishini davolashda foydalaniladi.

Damlama tayyorlash uchun 1 stakan zirk mevasini 0.5litr suvga solib biroz qaynatiladi. Keyin dokadan o'tkazib tayyor bo'lgan qaynatmani 1-2 osh qoshiqdan 3-4 mahal ichiladi.

Igir ildizpoyasidan tayyorlangan damlamasi hozirgi vaqtda ishtaha ochuvchi, yel haydovchi, isitma tushiruvchi, yo'tal va ko'krak og'rig'I kasalliklarida og'riq qoldiruvchi hamda balg'am ko'chiruvchi dori sifatida foydalaniladi. Damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan qaynab turgan suv quyib, ustiga 2 choy qoshiq maydalangan ildizpoyasi solinadi va 2-3 soat damlab qo'yiladi, so'ngra dokada suzib olinadi. Har kuni ovqatdan yarim soat oldin 3 maxal $\frac{1}{4}$ stakandan ichiladi.

Ittikanak yer ustki qismining damlamasi bolalarning diatez va ba'zi teri kasalliklariga (ekzema va boshqa) shifobaxsh vannalar qilishda hamda ba'zan siydik haydovchi, terlatuvchi va ovqat xazmini yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi. O'simlikning yer ustki qismidan tayyorlangan damlama yoki qaynatmasi xalq tabobatida raxit, podarga, jigar va taloq kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Damlamasi yana terlatuvchi, siydik haydovchi, qon oqishini to'xtatuvchi va ishtaha ochuvchi vosita hamdir. Bular bilan ba'zan teri kasalliklari (ekzema va boshqalarni) hamda rak kasalligining ba'zi turlari davolanadi.

Damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga yarim litr qaynab turgan suv quyiladi, ustiga maydalangan yer ustki qismidan 2 osh qoshiqda solib, issiq yerda (duxovkada) 12 soat damlab qo'yiladi. So'ngra dokada suzib, yuqorida keltirilgan kasalliklarga davo qilish uchun kuniga yarim stakandan 2-3 mahaldan ichiladi. Xuddi shu usulda tayyorlangan damlamadan bolalar vanna qilinayotganda 1 stakan qo'shib yuborilsa, qichish bilan kechayotgan teri kasalliklari oldi olinadi yoki damlamaga doka ho'llab yaralarga bosilsa yoki yuvilsa ham ancha samara beradi.

Kashnich mevasi poroshogi, damlamasi va nastoykasi xalq tabobatida me'da ichak kasalliklarini (ovqat hazmining buzilishida, me'da shirasi ko'p ajralgan hollarda) davolash, ba'zan gijjalarni tushirish hamda og'izdagi yoqimsiz hidlarni yo'qotish uchun qo'llaniladi. Mevasining efir moyi bavo silga davo qilinadi, jigar va o't pufagi kasalliklarida o't haydovchi (poroshogi, damlama va nastoykasi) vosita sifatida ishlatiladi.

Damlama tayyorlash uchun qopqoqli idishga 1 stakan qaynab turgan suv quyiladi, ustiga maydalangan (ezilgan) mevasidan 3 choy qoshiqda solib 15 minut damlanadi, so'ngra dokada suziladi. Tayyor bo'lgan damlamadan yuqorida ko'rsatilgan kasalliklarga davo qilish uchun har kuni 3 maxal ovqatdan yarim soat oldin 2 osh qoshiqdan ichiladi.

Kungaboqarning bargi bilan gulidan tayyorlangan nastoyka xalq tabobatida bezgak kasalligini davolashda, ishtaha ochish va ovqat hazmini yaxshilash uchun ishlatiladi. Bargaining damlamasi bilan isitma, gulidan tayyorlangan qaynatma bilan bezgak, isitma, ich ketishi, bod va yurak kasalliklar davolanadi. gullarining qaynatmasi yana siydik haydovchi vosita sifatida ham qo'llaniladi.

Damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishdagi 1 stakan qaynab turgan suvga maydalangan barg (yoki guli)dan 1 osh qoshiqda solinadi va 15 minut damlab qo'yiladi. So'ng dokada suzib isitmaga davo qilish yoki ishtaha ochish uchun kuniga 3-4 mahal ovqatdan yarim soat oldin yarim stakandan ichiladi.

Ko'k bo'tako'z gulining damlamasi yurak va buyrak faoliyatini buzilishi natijasida tanaga kelgan shishni (istisko kasalligini) davolashda siydik haydovchi vosita sifatida qo'llaniladi. Gullari siydik haydovchi choy yig'malar tarkibiga kiradi. Ko'k bo'tako'z gulining damlamasi xalq tabobatida shamollash, yo'tal, ko'kyo'tal, qorin va qovuq og'riqlari, ich ketishi, asab kasalliklarida qo'llaniladi. Damlamasi yana siydik haydovchi, terlatuvchi, bachadondan qon

oqishini to'xtatuvchi vosita sifatida ishlatiladi. Ba'zan ko'z kasalliklarida ham qo'llaniladi.

Oddiy archa qubbalarining dorivor preparatlari (damlama, siydik haydovchi yig'malar—choylar tarkibida) tibbiyotda siydik haydovchi, siydik yo'llarini dezinfeksiya qiluvchi, balg'am ko'chiruvchi hamda ovqat hazmini yaxshilovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Har qanday damlama muolajalarini qabul qilishdan avval, bir stakan suv (faqat gazsiz suv) ichishni unutmang. Negaki shilliq modda qizilo'ngachda tez to'planish xususiyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmatov H.X., Habibov Z. H., Farmakognoziya [Darslik], T., 1967;
2. Nabiyev M, Shifobaxsh giyoxlar, T., 1980;
3. Hojimatov Q., Olloyorov M. , O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza qilish, T., 1988;
4. Xoliqov K., O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar, T., 1992;
5. Hojimatov Q.H., Yo'ldoshev K.Y., Shogulomov U.Sh., Hojimatov O.Q., Shifobaxsh giyohlar dardlarga malham (Fitoterapiya), T., 1995;